

**NAZAR ESHONQUL IJODIDA USLUB VA BADIY TASVIR
STYLE AND ARTISTIC IMAGERY IN THE CREATION OF
NAZAR ESHONKUL**

Cho'liyeva Nilufar A'zam qizi
O'zMU doktranti
E-mail: nilufarchuliyeva19@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada Nazar Eshonqulning uslub individualligi va badiiy tasvir xususiyatlari ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** nasr, badiiy uslub, badiiy asar tili, badiiy tasvir, allyuziya, uslubiy usul.*

***Annotation:** The article shows the individuality of style and features of artistic image of Nazar Eshankul.*

***Keywords:** prose, artistic style, language of artistic work, artistic image, allusion, stylistic method.*

Ma'lumki, uslub ijodiy individuallikni ko'rsatuvchi, badiiy asarning o'ziga xos shakliy xususiyatlarini yoki muayyan davr adabiy jarayonida aks etgan mushtarak jihatlarni belgilab beruvchi badiiylik mezonidir. Jahon adabiyotshunosligida badiiy uslub muammosi va qissa janri uslubi haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, Arastu, M.M.Baxtin, V.G.Belinskiy, A.N.Veselovskiy, V.V.Vinogradov, V.Jirmunskiy, A.A.Potebnya, N.D.Tamarchenko, V.YE.Xalizev, M.B.Xrapchenko [Arastu. 2011: 351; Бахтин М.М. 1975: 502; Белинский В.Г. 1978: 271; Веселовский А.Н. 1989: 406; Виноградов В.В. 1971:118; Жирмунский В. 1961: 294; Потебня А.А.1976: 614; Тамарченко Н.Д. 2003: 288; Хализев В.Е. 2002:397; Храпченко М.Б.1975: 407.] kabi dunyo olimlarining ilmiy asarlarida badiiy uslub, uslub komponentlari, qissa janri va uning tabiati haqidagi nazariy qarashlari diqqatga sazovordir. Shu o'rinda, uslub haqida Xrapchenkning "uslub ...hayotni obrazli o'zlashtirishda qo'llanadigan ifoda usullari, kitobxonni ishontirish va jalb qilish usullaridir" [Храпченко М.Б.1975:109] degan ta'rifini keltirishning o'ziyoq azaldan badiiy uslubni kengroq o'rganish zarurati ta'kidlanganidan dalolatdir.

O'zbek adabiyotshunosligida esa M.Sultonova, H.Yoqubov, O'.Nosirov, N.Shukurov, H.Boltaboyev, Y.Solijonov, I.Mirzayev, A.Rasulovning ilmiy asarlarida ularning mazkur mavzuga tegishli nazariy qarashlari, tahlillari aks etgan [Султонова М. 1973:116; Носиров Ў. 1981:198; Шукуров Н. 1973:170; Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. 1983:206; Болтабоев Х.1983; Солижонов Й. 2002; Мирзаев И. 2000; Расулов А. 2007].

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Muayyan ijodkorning mahorati va o'ziga xosligi uning uslubida yaqqol namoyon bo'ladi. "Uslub - odam" (J.Byuffon) degan qarashning ilmda ko'p bora ta'kidlanishi ham uslubda ijodkorning shaxsi va voqelikni bayon qilish usuli aks etishidan darak beradi. Nazar Eshonqul qissalari uslubida muallifning badiiy mahorati namoyon bo'ladi. Adib qissalari ulardagi voqealarning o'zgacha badiiy ifodasi, kompozitsion qurilishi, so'z qo'llash jihatlari bilan o'zbek realistik qissalaridan tubdan farq qiladi. Shuningdek, ijodkor qissalari uslubida folklor bilan birga mumtoz adabiyotning ham ta'siri seziladi. Bu ta'sir "Tun panjaralari" qissasida Navoiy qalamiga mansub misrani epigraf sifatida qo'llanishi va Sulaymon obrazida, "Qora kitob" qissasidagi Odam Ato obrazi tasvirlarida namoyon bo'ladi. Muqaddas diniy manba bo'lgan Qur'onning insonlarga, jumladan, ijod ahliga bergan ilhomi beqiyosdir.

Ijodkor uslubiga xos bo'lgan allyuziya ("lotincha allusio – ishora, hazil; barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul" [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. 2013: 26.]) orqali qissalarning g'oyaviy-mazmuniy kengligi, muallif aytmqochi bo'lgan fikrlar xilma-xilligi ta'minlangan.

Xususan, "Qora kitob" qissasida qahramon o'z o'g'lining Iblis uchun qurbon bo'lishga ham roziligini uning kundaligidan o'qib qoladi. Kundalikda yozilishicha, o'g'il Iblis bilan birlashishga qaror qiladi: "...Bu yo'lda qurbon bo'lsang arziydi. Axir, Ibrohim ham o'g'lini qurbon qilmoqchi bo'lgandi" [Эшонкул Н. 2008: 236.]

Ko'rinadiki, bu yerda Ibrohim alayhissalomga ishora bor. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'onda aytilganidek, Ibrohim Allohga sig'ingan va unga iymon keltirgan. U kunlarning birida tush ko'radi va tushining ta'biriga ko'ra o'z o'g'li Ismoilni qurbonlik qilmoqchi bo'ladi. Lekin qurbonlik uchun Alloh tomonidan qo'chqor yuboriladi va shu qo'chqor qurbonlik qilinadi [Қуръони карим. Бақара сураси, 35-36-оятлар]. Ammo qissada Iblis so'ziga ko'nib, adashgan o'g'il o'zini noto'g'ri emas, to'g'ri yo'lda deb o'ylaydi. Natijada Ibrohim alayhissalom qilgan amalni bajaryapman, deya xato fikrlaydi. Chunki Iblis uning qalbini egallab bo'lgandi.

Muallif insoniyat va Iblis o'rtasidagi kurash abadiy ekanligini asarda yana bir bor ta'kidlaydi. Qissa qahramoni farzandlarining xato qilayotganligini ko'rib, tushkunlikka tushib qolgan kunlarning birida Odam Atoni uchratadi. Ular o'rtasidagi suhbat orqali Qur'onda keltirilgan yana bir voqea - insoniyatning ilk xatosi Odam Ato va Momo Havvoning ta'qiqlangan mevani yeb, iblisning yo'liga

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

kirganligiga ishora etiladi [Қуръони карим. Саффот сураси, 103-, 104-, 105-, 106, 107- оятлар.]

Qissada esa Odam Ato qahramonga insonlarning xatolar qilishi butun insoniyat peshonasiga yozilgan qismat ekanini aytadi: “ - Hali bu insoniyatning xotimasi emas. O’sha ta’qiq mevasi Iblisning urug’i emasmikin. Uni yeb, odamzot nasli ichiga uni ekib qo’ymadikmikan degan shubha meni qiynaydi. Odamzot qalbini tozalagan sayin ifloslanib borayapti... Bu mening nasl va zuryodim peshonasidagi yozdiq. Uni endi insoniyat o’chirishga ojiz. Peshonamizga mening tamg’am – tavqi la’nat tamg’asi bosilgan” [Эшонкул Н. 2008:246]

Qissaning yana bir o’rnida esa allyuziv usul orqali Nuh payg’ambarga ishora qilinadi. Ya’ni yer yuziga payg’ambar qilib yuborilgan Nuhning Allohga sig’ining, degan da’vatlariga ishonmaydiganlar – kofirlar o’z xudbinliklari bilan payg’ambarning g’azabini keltiradi. Shundan so’ng, Nuh Allohga yer yuzida bironta kofir qolmasin deya yolvoradi. Natijada mislsiz suv toshqini yuz beradi. Nuh va uning ahli omon qolishi uchun kema yuboriladi. Nuh alayhissalom va uning ahli shu kema tufayli to’fondan qutilib qoladi. Ammo kemaga ham shayton kirib oladi [Қуръони карим. Нуҳ сураси, 28 оят. Анкабут сураси, 14-оят. Шуаро сураси, 119-120-оятлар.] “Qora kitob” qissasida ham ana shu voqelikka ishora etiladi: “Yomg’ir tinimsiz yog’ar, atrof sel va to’fonga g’arq bo’layotgandi. Qandaydir ulkan kemaga odamlar shoshilib-surilib chiqar, pastda esa minglab odamning to’fonga g’arq bo’lgan jasadlari yotardi. Men kemaga qarab uchdim va Iblisni shu yerda uchratdim” [Эшонкул Н. 2008: 242.]

Nazar Eshonqulning mahorati shundaki, Shayton insoniyat bilan doimo yonma-yon bo’lib, kelajakni fojialarga duchor etishini juda ta’sirli tasvirleydi: “Men xanjarimni tutgancha Iblisga yaqinlashdim va uning qo’lidagi go’dakni ko’rib tong qotib qoldim. U hozirgina kemaga chiqqan erkak va ayolning yonida turar, qo’lida xuddi ularniki kabi go’dak bor edi. Ayol bolani bir chetga o’tirg’izib, ust-boshini siqa boshladi. Aftidan, Iblis shuni kutib turgan edi, qo’lidagi bolani hozirgina ayol qo’ygan bolaning yoniga o’tirg’izib, ayolning bolasini qop-qora qo’yniga yashirdi. Ust-boshini siqib bo’lgan ayol Iblis qo’ygan bolani olib, eri izidan kema ichidagi hujralardan biriga kirib ketdi. Iblis qo’ynidagi bolani pastga uloqtirar ekan, xunuk va g’olibona qah-qah urdi” [Эшонкул Н. 2008: 242] Ko’rinadiki, muallifning badiiy fantaziyasi diniy syujetga ishora qiladi va bu syujet motivi asosida Shayton obrazining insoniyat uchun doimiy xavf ekanligini o’zgacha badiiy ilova qiladi.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

“Tun panjaralari” qissasida ham muallif allyuziya usulidan foydalanganini ko‘ramiz. Asar matnida qahramon o‘z qalbidagi ilohiy ishqning nechog‘lik buyukligini izhor etadi. Bu borada o‘zini ulug‘ ishq sohibi bo‘lgan mumtoz obraz – Farhodga qiyos qiladi va shu ilohiy ishqqa ishora etadi. Allohga munojotlar qiladi va haqiqiy ishq qudratini his etadi: “Oradagi seni to‘sib turgan bu xurofot tog‘ini kecha-yu kunduz ruhim tirnoqlari bilan qo‘porib senga tomon yo‘l ochayapman. Agar mana shu mashaqqat tog‘ini qo‘pora-qo‘pora ko‘yingda halok bo‘lsam, mening suyaklarimdan Farhod yasa-yu, ular ham shu tog‘ni qaza-qaza sen tomon yo‘l olsinlar yoxud suyaklarimni tog‘ ustiga qalab, ulkan gulxan yoq-u boshqalar senga boradigan yo‘llarni bir lahza bo‘lsa ham ko‘rib olsinlar... senga intilsinlar, tavba qilsinlar!” [Эшонкул Н. 2008: 172]

Ushbu qissaning yana bir o‘rinida esa badiiy adabiyot insonning dardini aytish hamda didaktik maqsad uchun yaratilganiga Rumiya va u yaratgan hikoyatga ishora qilinadi: “Qachonlardir uni bir-birlariga yuraklaridagi og‘riqlarni aytish va ibrat qilib ko‘rsatish uchun o‘ylab topishgan. Bir vaqtlar Rumiya jondor, tulki, arslonni uchrastirib, yangi tashbeh topgan”.

Ya‘ni Rumiyaning “Masnaviyi ma‘naviy” asarida “Ovga chiqqan ovlangay” nomli hikoyat bor. Bu hikoyatda ovga chiqqan tulki, bo‘ri va arslon birga ov qilishgani, va oqibatda, o‘lja taqsimlashda arslonning qahriga uchraganliklari tasvirlanadi. [Тилавов А. URL:<https://www.ziyouz.com>]. Ovga chiqqanlarning o‘zi ham ovlanishi ularning xayoliga ham kelmaydi. Rumiya bu hikoyat orqali kimki o‘z nafsini yo‘lida kimgadir ozor bersa, albatta, o‘z joniga jabr qilishini majoziy ko‘rsatib beradi. Qissa qahramoni esa Rumiya ijodiga ishora orqali adabiyot nima demoqchiligini aytishning eng nafis yo‘li ekanligini ta‘kidlaydi.

Bundan tashqari, muallif qissada nafaqat badiiylikka, balki tarixda bo‘lib o‘tgan voqealarga ham allyuziv ishora qiladi: “U (ya‘ni shayton – N.CH.) menga Bobilni qanday talashganlari, Quddusga qanday zarba berganlari, Pompeyni qanday vayron qilganlari, Rimni qanday qilib tanazzul sari burib yuborganlari, odamzotga qanchadan-qancha xizmatlari singgani to‘g‘risida faxr va biroz maqtanchoqlik bilan (u negadir hadeb yaltoqlanardi) hikoya qilib berdi” [Эшонкул Н. 2008: 185] Muallifning bu tasvirdan maqsadi ma‘lum davrlarda odamlar butun insoniyat sivilizatsiyasi darajasidan xabar beruvchi shaharlarni, inshootlarni vayron qilganliklari ortida shaytoniy nafs, qutqu turganligini ta‘kidlashdir. Shuning uchun ham qissada bu kabi voqealar shaytonlarning qilmishlari tarzida voqelangan.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Xullas, Nazar Eshonqul qissalari o'ziga xos badiiy ifodaga ega. Voqealar "men" tilidan so'zlanar ekan, roviy nutqi muallif qarashlari va hislarining in'ikosiga aylanadi. Qissalar matnidagi mazmuniy va tasviriy serqatlamlilik muayyan ramzlar va metaforalar, allyuziya, badiiy sintez, aforistik nutq vositasida aks ettiriladi. Muallif mahorati va uslubining o'ziga xosligi ham asosan shularda ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. –Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 351.
2. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 502.
3. Белинский В.Г. Собрание сочинений. т.3. – М.: 1978. – С. 271.
4. Болтабоев Ҳ. Стилиевые искания современной узбекской прозы (70-е годы). Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1983.
5. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.:Высшая школа, 1989. – С. 406;
6. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 118.
7. Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край?.. Изд.МГУ 1961. – С. 294.
8. Мирзаев И. Бадий услуб сеҳри. – Самарқанд, 2000.
9. Носиров Ў. Ижодкор, шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – 198 б.
- 10.Потебня А. А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С. 614;
- 11.Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2007. – 624 б.
- 12.Куронон Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.
- 13.Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент:Шарқ,2007. -336 б.
- 14.Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002.
- 15.Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973. – 116 б.
- 16.Тамарченко Н.Д. Теория литературы // Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003. – С. 288.
- 17.Тилавов А. муҳаррирлигида. “Маснавий”дан ибратли ҳикоятлар. URL: <https://www.ziyouz.com>.
- 18.Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – С. 397;
- 19.Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – С.407.

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVİY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

20. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – С.109.
21. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 206 б.
22. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 170 б.
23. Эшонкул Н. Ялпиз ҳиди. Қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.236.